# YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Navoiy viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 26 490,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,3 % ga o‘sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 118,1 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo’yicha YaIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo‘shgan hissasi 8,3 % ga yetdi.

**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’atlari**

| | | *Mlrd. so’m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|---|
| | | ***2020- yil*** | ***2021- yil*** | |
| | **I. YaHM** | **21 290,2** | **26 490,6** | **105,3** |
| | *shu jumladan:* | | | |
| | Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 20 979,7 | 25 983,5 | 105,3 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 310,5 | 507,1 | 105,7 |
| | **Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **20 979,7** | **25 983,5** | **105,3** |
| | **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **2 621,4** | **3 310,9** | **101,1** |
| | **Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **15 644,1** | **19 484,4** | **105,9** |
| | sanoat | 14 866,1 | 18 549,7 | 106,1 |
| | qurilish | 778,0 | 934,7 | 103,4 |

| | | *Mlrd. so'm* | | ***O'sish sur'atlari,*** *o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|---|
| | | ***2020- yil*** | ***2021- yil*** | |
| | **Xizmatlar** | **2 714,2** | **3 188,2** | **105,9** |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 568,0 | 675,3 | 105,4 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 349,1 | 431,7 | 111,8 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 1 797,1 | 2 081,2 | 104,9 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 26 024,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga yuqoridir.

**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



| | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|
| **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi** (*ming so'm*) | 21 268,9 | 26 024,8 |
| **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari** (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da*) | 6,3 | 3,6 |

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 12,7 % ni, sanoat tarmog‘i 71,4 % ni, qurilish 3,6 % ni va xizmatlar sohasi 12,3 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

| | 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|---|
| **I. YaHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 98,5 | 98,1 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 1,5 | 1,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **12,5** | **12,7** |
| **Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **74,6** | **75,0** |
| sanoat | 70,9 | 71,4 |
| qurilish | 3,7 | 3,6 |
| **Xizmatlar** | **12,9** | **12,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 2,7 | 2,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1,7 | 1,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 8,6 | 8,0 |

## 2020- yil




## 2021- yil



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

YaHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 101,1 % (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 12,7 %), sanoatda – 106,1 % (71,4 %), xizmatlar sohasida – 105,9 % ni (12,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 105,4 % (2,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,8 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,9 % dan (8,0 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*






YaHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog‘i – 4,2 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 7,5 f.p.), qurilish – 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida salbiy – 0,4 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 0,8 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) ga ko‘paydi.

**2021- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o’sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*



2021-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 118,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari qishloq, o`rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 125,0 % va sanoatda – 117,6 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*




## Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi

*(jamiga nisbatan %da)*




2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 24,9 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-iyunida – 25,0 %).

YaHMning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.